

**LINGUISTIC FEATURES OF ERKIN A'ZAM'S WORKS (BASED ON THE NOVEL "A WALK UNDER THUNDER")****Zulaykho Shaymanova***First-Year PhD Student**Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore**Academy of Sciences of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** artistic text, colloquial speech, dialogue, phraseological units, irony, humor, symbolism, occasional words.

**Received:** 11.06.26

**Accepted:** 12.06.26

**Published:** 13.06.26

**Abstract:** This article examines the artistic language features of Walking Under the Thunderstorm, a novel by Erkin A'zam, one of the prominent representatives of Uzbek literature. The analysis focuses on the artistic expressive devices employed in the work, the use of lexical units closely related to folk speech, dialogues, phraseological expressions, irony and humor, as well as the distinctive features of the novel's syntactic structure. Particular attention is paid to the harmony between the author's narrative voice and the speech of the characters. The occasional words (names) used in the novel are also explained. As a result, the study demonstrates that the writer's individual style and mastery of artistic language constitute a unique and significant phenomenon in Uzbek prose.

**ERKIN A'ZAM ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI  
("MOMAQALDIROQ OSTIDA SAYR" ROMANI MISOLIDA)****Zulayxo Shaymanova***1-kurs tayanch doktoranti**O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**Tashkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Badiiy matn, xalqona nutq, dialog, frazeologizm, kinoya, yumor, ramziylik, okkasionallik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Erkin A'zamning "Momaqaldiroq ostida sayr" romanining badiiy til xususiyatlari yoritilgan. Tahlil davomida asarda qo'llangan badiiy

tasvir vositalari, xalq tiliga yaqin leksik birliklar, dialoglar, iboralarning qo'llanishi, kinoya va yumorning ifodalanishi, shuningdek, romandagi sintaktik qurilishning o'ziga xos tomonlari hamda muallif nutqi va qahramon nutqining uyg'unligi ko'rsatib berilgan. Romandagi okkazional so'zlar(nomlar) izohlangan. Natijada yozuvchining individual uslubi va badiiy til mahorati o'zbek nasrida o'ziga xos muhim hodisa ekani asoslab berilgan.

## ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЭРКИНА АЪЗАМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «ПРОГУЛКА ПОД ГРОМОМ»)

*Зулайхо Шайманова*

*Докторант 1-го курса*

*Институт узбекского языка, литературы и фольклора*

*Академии наук Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** художественный текст, народная речь, диалог, фразеологизм, ирония, юмор, символизм, окказиональность.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности художественного языка романа Эркина Аъзама «Прогулка под громом». В ходе анализа освещаются художественно-изобразительные средства, использованные в произведении, лексические единицы, близкие к народной речи, диалоги, употребление фразеологических выражений, способы выражения иронии и юмора, а также своеобразие синтаксической структуры романа и гармоничное сочетание авторской речи с речью персонажей. Кроме того, даётся толкование окказиональных слов (имён), встречающихся в романе. В результате обосновывается, что индивидуальный стиль писателя и его мастерство художественного языка представляют собой важное и самобытное явление в узбекской прозе.

“Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo, uning tilida zuhur etadi. O'zbek tilining tabiati va mantig'ida xalqimizning saviyasi va tafakkur tarzi o'z tajassumini topgan. Aslida so'zimiz bizning o'zimizdir”. Til har bir xalqning ma'naviy qiyofasini, dunyoqarashi va tafakkur tarzini aks ettiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli badiiy asar tili masalasi doimo ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelgan. Har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi, til tanlovi va ifoda imkoniyatlari

uning badiiy olamini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan Erkin A'zam asarlaridagi til xususiyatlarini tadqiq qilish o'zbek adabiy tilining keng taraqqiyot yo'lini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Erkin A'zam ijodi zamonaviy o'zbek nasrida alohida o'rin egallaydi. Uning asarlarida oddiy hayot manzaralari, inson ruhiyatidagi nozik holatlar hamda jamiyat muammolari sodda, ammo ta'sirchan til vositalari orqali yoritiladi.

Erkin A'zam ijodining o'ziga xosligi shundaki, u badiiy ifodada murakkab tasviriy bezaklarga e'tiborini qaratmaydi, aksincha, oddiy so'zlar orqali tiniq ma'no yaratadi. Yozuvchi tilining badiiyligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi: xalq tiliga o'xshash sodda leksik birliklar, maqol va matallar, iboralar, dialoglarning tabiiyligi, yumor va kinoyaning chuqur falsafiy mazmun bilan uyg'unlashuvi, hatto o'zbek tilining izohli lug'atida uchramagan, ammo xalq tilida qo'llanadigan so'zlardan foydalanishi adibning o'ziga xos uslubini belgilaydi.

Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Momaqaldiroq ostida sayr" romani asosida uning badiiy til xususiyatlari tahlil qilindi. Mazkur asar yozuvchining til mahoratini ko'rsatib beruvchi yorqin namuna hisoblanib, unda inson ruhiyati, xalqona donishmandlik, kulgi ortidagi achchiq hayotiy haqiqat va ramziy tasvirlar kuchli ifodalangan.

Erkin A'zam asarlarining badiiy tili soddaligi bilan e'tiborni tortadi. Biroq bu soddalik yuzaki emas, balki mazmunan chuqur, badiiy jihatdan mukammal ifodadir. Adib ko'pincha qisqa gaplar, aniq tasvirlar va oddiy so'zlar orqali murakkab ruhiy holatni ochadi: "Tog' nozanining asosiy vazifasi – nozik-nozik mehmonlarga ko'z- ko'z bo'lib turish".

"Momaqaldiroq ostida sayr" asarida voqealar murakkab dramatik burilishlarga emas, balki inson hayotidagi oddiy holatlar va ichki kechinmalarga asoslangan. Yozuvchi aynan shu oddiy hayotiy manzaralarni sodda, ammo ta'sirchan til bilan tasvirlaydi. Erkin A'zam tilining soddaligi o'quvchida ishonch uyg'otadi. Chunki kitobxon asardagi gaplarni sun'iy bezak sifatida emas, balki real hayotdan olingan jonli nutq sifatida qabul qiladi. Bu esa adib asarlarining ommabop bo'lishiga sabab bo'lgan muhim omillardan biridir. "Hoji bobo azaldan otga ishqiboz, to'rtta oti bor, biri qo'shni turkman yurtidan tortiq bo'lib kelgan zotdor qorabayir. Ammo u kishining o'zini ot minganini birov ko'rmagan. Chin ishqibozchilik shu-da".

Erkin A'zam asarlarida xalqona so'zlar va so'zlashuv uslubiga xos birliklar yozuvchi tasvirlayotgan muhitning tabiiyligini ta'minlaydi. "Momaqaldiroq ostida sayr" asarida xalqona nutq unsurlari kuchli seziladi. Hikoya qahramonlarining nutqi oddiy qishloq odamlarining kundalik so'zlashuviga juda yaqin. "... Noma'qulginaning nonini yebsiz, ulim! Enangiz bu yoqda qonbosimdan xunibiyron. Besh yil yo'l qaradik, yetar! Siz yana chamadon ko'tarib jo'nasangiz, el-ulus nima deydi? Shusiz ham o'zi ko'chaga chiqolmay o'tiribmiz!.." Bu asarda ishlatiladigan so'zlar, murojaat shakllari, gap tuzilishi qishloq hayotining jonli manzarasini beradi. Shuningdek, shevaga xos so'zlar, otaning farzandiga murojaati ko'proq qahramon ruhiyati va ichki

kechinmalari bilan bog'langan. Asar davomida uchraydigan ushbu so'z va iboralar insonning hayot haqidagi mulohazalari, yolg'izlik va iztirob kayfiyatini ifodalaydi. "[G'ayrat] Ko'chaga chiqsa, ko'rgani ishshayib ustidan kulayotgandek bo'laveradi: "O'l bu kuningga! Qo'lingdagi emas, qo'yingdagi qushni uchirib o'tiribsan-a, erkakmisan o'zi?!" Qitmir bir sinfdoshi aytganidek, u endi sevgi maydonida qattiq nokautga uchragan banda!" Xalqona leksikaning badiiy vazifasi shundaki, u nafaqat tasvirni jonlantiradi, balki milliy mentalitetni ham aks ettiradi. "Shundan keyin "Chag'oniyon" qadimiy xonishlarini boshladi: "Yaquq yaq", "Um pufo', um jaqala", "Mayda-yo mayda", "Ha do'rsi, do'rsi, do'rsi"... Bazm jo'nashib ketib, rasmona to'y tusini oldi". Erkin A'zam asarlarida milliy ruhni sezdiruvchi bunday so'zlar ko'p uchraydi. Asarga milliylikni aks ettiruvchi xalq qo'shiqlari nomlarining kiritilishi adibning o'zbek xalqining madaniyatini, san'atini o'zbek millatiga xos dunyoqarashni chuqur his qilganini ko'rsatadi.

Adib asarlarida frazeologizmlar badiiy matnning ifodaviyligini oshirib, obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Yozuvchi frazeologizmlardan fikrni qisqa va ta'sirli yetkazish vositasi sifatida foydalanadi. "Madam Xosiyat ham uy bekasi maqomida girdikapalak bo'lib davra aylanib yurardi; borib kimningdir oldini sarishtalab qo'yadi, kimgadir nimanidir olib uzatadi. Og'zi qulog'ida, hammaga tirjaygani tirjaygan".

"Momaqaldiraq ostida sayr" asarida xalq iboralari va frazeologik birliklar hikoyaning umumiy yo'nalishiga mos ravishda yumor bilan uyg'unlashadi. Frazeologizmlar qahramon xarakterini ochishga, ularning sodda va samimiy dunyoqarashini ko'rsatishga, hissiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, "ko'ngli g'ash tortishi", "yuragi siqilishi", "ichiga sig'masligi", "og'zi qulog'ida", "it egasini tanimaydi", "devor ag'anasa ichkari ag'anasin", "yopiq qozon yopiqlicha qolgani", "kesakdan o't chiqqan", "ishi boshidan oshib yotibdi", "ko'nglida chiroq yoqqandek", "qorasini ko'rsatmay", "taqdirga tan berdi", "dami ichiga tushdi", "beti qotgan", "ko'z tashlamoq", "dunyo ko'ziga qorong'u ko'rindi" kabi frazeologik birliklar qahramon ruhiy iztirobini, hayot tarzini, turli yashamlarini sodda, ammo o'tkir kesatq, ba'zan kulgili holatda bera oladi. Frazeologizmlar xalqona tildagi eng boy qatlamlardan biri bo'lgani uchun yozuvchi undan unumli foydalanadi. Bu hol adibning xalq tiliga tayanib ijod qilganini va badiiy ifodada xalqimizga xos bo'lgan holatlarga urg'u berganini namoyon qiladi.

Erkin A'zam asarlarida dialoglar hayotiy, qisqa, samimiy va obrazli bo'lib, voqealar rivojiga ta'sir qiladi. Yozuvchi dialoglar orqali nafaqat voqeani rivojlantiradi, balki qahramon xarakterini ham ochib beradi. "Momaqaldiraq ostida sayr" asarida dialoglar ko'pincha chuqur ma'noli, lekin qisqa gaplardan iboratdir. Ba'zan qahramonlar ko'p gapirmaydi, ammo ularning aytgan bir-ikki jumlasini ham butun ruhiy holatni ifodalay oladi:

- Anovi to'tiqush shoiramiz ham bormidi?
- Qanaqa shoira?

- Vatanni sevadigan-chi?
- U shoira emas, kotiba, bilasiz-ku.
- Kotibangiz Inna emasmidi?
- Nozli – matbuot kotibi. Shuning uchun sevadi vatanni.
- Jo‘shib gapirishlariga men uni shoira deb o‘ylar ekanman.

Erkin A‘zam ijodida yumor va kinoya alohida o‘rin tutadi. Adib kulgi orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi, inson xarakteridagi kamchiliklarni ko‘rsatadi. Achchiq kinoya, kesatiq orqali jamiyatdagi o‘sha muammolarni tub ildizi bilan yo‘q bo‘lishini istaydi. Asarda Hoji boboning tasviriga e‘tibor bering: “Darvoqe, otxonaning olis bir burchagida – bejirimgina qafasda tog‘ ohusi ham bor. Uni tog‘dan hoji boboning o‘zi tutib kelgan, degan gap yolg‘on, lof, albatta – o‘sha yerlik qarindoshlari o‘zlaridan chiqqan baobro‘ arbobga hadya qilib yuborgani endi boshqa masala, ishonsa bo‘ladi. Tog‘ nozanining asosiy vazifasi – nozik-nozik mehmonlarga ko‘z-ko‘z bo‘lib turish. Egasining yoshlik chog‘lari tog‘- u dara kezib ohubozlik qilgani borasida esa biron-bir ma‘lumot yo‘q”. Uning yumori yuzaki kulgi emas, balki hayot haqidagi, insonlar haqidagi qarashlarning badiiy ifodasidir. Yozuvchi yumor va kinoyani juda tabiiy ishlatadi. U kulgini majburlab yaratmaydi, aksincha hayotning o‘zidan kelib chiqadigan kulgili vaziyatlarni badiiylashtiradi.

Erkin A‘zam badiiy tilining sintaktik qurilishi ham o‘ziga xosdir. Adib ko‘pincha qisqa gaplardan foydalanadi. Bu esa o‘quvchini voqeaga tez jalb qiladi. Qisqa jumlar ko‘pincha kuchli hissiy ta‘sir beradi. “Momaqaldiroq ostida sayr” asarida qisqa jumlar qahramonning ichki monologlarini ifodalashda juda qo‘l keladi. Qahramon fikrlari parcha-parcha bo‘lib keladi, bu esa insonning ruhiy holatiga mos tarzda berilgan. Ba‘zan jumlar tugallanmay qoladi. Montaj bilan band odamga hech narsa yoqmaydi. Oyravshanga malol tuyuldi, ensasi ham qotdi: tavba, kasalxonada yotgan kishi “kelib meni ko‘rib ket” deydimi hech zamonda? Maslahatlari bor emish. Qanaqa maslahat ekan u? “Tag‘in bir ko‘rsatuv qilasan” deb qolsa-ya! He, yoqmay ketsin. Xvatit! Basseynlari alomat edi-da lekin! “Televideniyeidagi eng zo‘r figura...”

“Momaqaldiroq ostida sayr” romanida undov va so‘roq gaplar ko‘pligi qahramonlarning hissiy holatini kengroq ifodalaydi. Masalan, qishloq odamlari nutqida tez-tez uchraydigan “ha endi”, “o‘zi shunaqa-da”, “bo‘lmasa-chi” kabi so‘zlar asar tilining tabiiyligini oshiradi. “– Yo‘q, o‘zim, o‘zim, – dedi Oyravshan sarosima bilan”. Shuningdek, roman matnida to‘liqsiz gaplar ham ko‘p uchraydi. To‘liqsiz gaplar dialoglarni hayotiy qiladi, nutqni jonlantiradi. – Nima qilardingiz – bizga baxt tilab qolaverasiz-da! – Baxt? Qanaqa?.. – Yo narxini berib qo‘yaqolaymi? – Nimalar deyapsiz o‘zi? Nimaning narxi? – Baxtning-da, baxtning!

Erkin A‘zam asarlarida ramziylik muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi oddiy predmetlarni ramziy obraz darajasiga ko‘taradi va shu orqali chuqur falsafiy mazmun beradi. “Momaqaldiroq ostida

sayr ” asari nomining o‘zi ramziylik tashiydi. Momaqaldiraq- hayotdagi keskin burilishlar, insonning ichidagi qo‘rquvi, jamiyatdagi ziddiyatli vaziyatlar va inson qalbidagi tipirchilashlar ramzi. Professor M.Asadov ham o‘z maqolasida asar nomi yuzasidan fikr bildirib shunday deydi: “ Momaqaldiraq ostida...” Tirikchilik tashvishlari-yu turli-tuman hoyu havaslar ilinjida dunyo saylgohini kezmoq istagan har bir “jon” ning qismati alaloqibat shudir! ...mahoratli yozuvchi maqsad-muddaosini, asar g‘oyasi, syujet tizginini ham eng avvalo, kitobning sarlavhasida jamlaydi”.

Erkin A‘zam asarlarining yana bir muhim jihatlaridan biri – muallif nutqi va qahramon nutqining bir-biriga juda yaqin turishidir. Asardagi bu uslub kitobxonda muallifning o‘zi ham xalq ichida yashayotgan, voqealarni bevosita kuzatayotgan inson sifatida tasavvur paydo qiladi. Muallif nutqida ham sodda xalqona ohang seziladi: tasvirlar sodda, jumlarlar sof, fikr aniq. Bu esa asarning umumiy badiiy ruhini namoyon qiladi. Muallifning asardagi qahramonlari o‘quvchiga uzoqdan turib hikoya qilayotgandek emas, balki yaqinida turib gapirayotgandek tuyuladi. Oxir-oqibatda muallif va qahramon nutqi bir-biri bilan moslashib, umumiy lashib, asarning badiiy butunligini ta‘minlaydi.

Shuningdek, asarda okkazional so‘zlar ham qo‘llangan. Ma‘lumki, okkazional so‘zlar so‘zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o‘z fikr va maqsadini o‘ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o‘zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo‘lgan o‘z munosabati, ya‘ni his-tuyg‘ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi. Adib asarida shunday so‘zlar mavjud: qoqichak, qizilparast, rohatluqma, quloqqoqdi, qopong‘ichlik, ro‘zguzaronchilik, olchechak, talabaxona va h. Masalan, Xonadon egalari – qo‘lini doim orqaga qilib yuradigan sersavlat Sho‘ro bobo va u kishining maktab direktori bo‘lib ishlaydigan shirinso‘z, baqaloq xotini O‘lmas xola-yu ularning erkatoiy arzandalari Shurikdan boshqa hovli chetidagi oshxonaga yondosh chog‘roq hujrada Kayvoni xola degan qopqora, daroz, qoqichak xotin ham istiqomat qiladi. Hafta sayin bayt-u g‘azal qo‘shib maktub bitlmasa turolmaydigan Oyravshanning qo‘liga bamisoli olchechak toshdi – javoblar allaqanday cho‘ltoq, behafsala; bahonasi – ishi ko‘p, siz bilmaysiz, juda ko‘p! Yigitqavatma-qavat yurib, talabaxonaning tit-pitini chiqardi desa lof emasdir.

Erkin A‘zam badiiy tilining poetik qiymati uning soddaligida, xalqona ohangida va chuqur mazmunni qisqa so‘zlar bilan bera olishida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin A‘zamning “Momaqaldiraq ostida sayr” romani badiiy til imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim asarlardan biridir.

Romanda uchraydigan okkazional so‘z va nomlar yozuvchining o‘ziga xos badiiy mahoratini yaqqol ko‘rsatib bergan. Umuman olganda, Erkin A‘zamning badiiy tili zamonaviy o‘zbek adabiy tilining rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega hodisa sanaladi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asadov M. Nega “Momaqaldiraq ostida sayr” qilish kerak? Oyina.uz/uz/article / 4518
2. Аъзам .Э. Момақалдиروق остида сайр. –Тошкент: SAHHOF, 2025. – Б. 287.
3. Begmatov E., Hojiyev A., Madvaliyev A., Mahmudov N., Mirzayev T., Musayeva F., Odilov Y., Xudayberganova D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 4-jild.
4. Mahmudov N. O‘zimiz va so‘zimiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1997. – 112b.
5. Mahmudov N. Zarif so‘z ziyorati: to‘plam. –Toshkent: Bookmany print, 2025.–134 b.
6. Toshaliyeva S. O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalishi: –Toshkent: 1998.
7. Toshxo‘jayeva Sh. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi. (diss. avtoreferat). – Farg‘ona: 2017.
8. Юлдошев М. Бадий матнинг лингвопоетикаси. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2008. –160 б.